

## BEDIL FALSAFASIDA BARKAMOL YOSHLAR TARBIYASI HAQIDA

SATTOROVA SHALOLA BOBIR QIZI

(Buxoro davlat pedagogika instituti)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13382366>

**Annotatsiya.** Muallif ushbu maqolasida Mirzo Bedil ijodini falsafiy tahlil qilgan. O'zbek xalqining vatandosh siymosi, Sharq madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, o'z zamondoshlari va ilm axllari tomonidan taqdirlanib, Abulma'oni laqabi bilan shuhrat qozongan Mirzo Abdulkodir Bedil - qiyosi yo'q shoir, mutafakkir va jamiyatshunos olim, o'ziga xos faylasufona qarashlar sohibi bo'lgan insondir.

**Kalit so'zlar:** jamiyatshunos olim, dunyoqrash, tarixiy va falsafiy ildizlari, falsafiy ta'limotlar, zamondosh.

Mirzo Abdulqodir Bedil, ijtimoiy tenglikni mehnat, ilm-fan va san'atga bo'lgan hurmat bilan ko'rib, qalloblik, tekinox'rlilikni tanqid qiladi. Mirzo Abdulqodir Bedilning jamiyat haqidagi ta'limoti adolatli hukmdor va jamiyatni to'g'ri tashkil qilish g'oyasiga asoslanadi.

Agar biz bugun ilmga yo'naltirilgan, donolikka asoslangan jamiyat haqida gapiradigan bo'lsak, shuni bilishimiz kerakki, bundan asrlar avval ham olam uchun shunday idealni tasvirlagan Bedil bo'lib, urushning oldini olish uchun doimo ta'kidlaydi. urush umumbashariy vayronagarchilik va odamlar oldida, va u har doim urushdan qochadi. "Dunyo, Bedil nuqtai nazaridan aqlli dunyo, inson esa kosmik borliqdir", agar biz dunyoni urush orqali vayron qilsak, bu yer bizga qarshi ko'tarilguncha kutishimiz kerak.

Mirzo Abdulqodir Bedir fikricha, adolatli davlat sharoitidagina yuksak axloqiy tamoyillar, inson erkinligi amalga oshishi mumkin.

"Kishi tabiatin fosh etsa idrok,

Faqat yaxshilikka etar ishtirok.

Ilmdan bebaxra qoladi ta'bi

Badfelidan kechib bo'lolmasa pok".

Faylasuf Bedilning qimmatli asarlarida insonlarni zo'ravonlikdan saqlanishga chaqiruvchi, insoniylik, qadr-qimmat, tinchlik yo'liga chorlovchi Bedilni ko'ramiz. Bu asarlar zulmga xizmat qiladigan, adolatni amalga oshirmaydigan hukumat, shubhasiz, xalq tinchligi va osoyishtaligining sharti emasligini ko'rsatadi. Bedil ijodining qadri shundaki, inson abadiy tinchlikka, bag'rikenglikka, zo'ravonlikni inkor etishga bog'lanadi.

L.Klimovichning yozishicha, "Mirzo Abdulqodir Bedil tili va uslubining o'ziga xos mohiyati shundaki, u an'anaviy ramziylikka qarshi isyonni aks ettiradi. Bu "Sabki Hindiy" - hind uslubi nomi bilan ustuvor bo'lgan uslub Hindistonda va boshqa joylarda yashagan shoirlarga ko'chib o'tgan".

Mirzo Abdulqodir Bedil insonparvarlikni targ'ib etadi, insoniy fazilatlarini ulug'laydi, shu bilan birga yomon hislatlar va nuqsonlarni tanqid etadi. U kishilarni turli millat va din vakillari emas, umuminsoniy insonlar, deb ulug'laydi, shuning uchun ham ularni eng yuksak hurmat va e'zozga loyiq ko'radi.

Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy dunyoqarashi buyuk faylasuf, ilohiyot va tasavvuf shayx Muxtuddinomibn Arabiy asos solgan "Vahtad-ul-vujud" falsafasiga asoslanganligi

yuqorida aytib o'tilgan edi . Jumladan, Mirzo Abdulqodir Bedilo Ibnal-Arabiyning mashhur "Fususul-hikam" asari ta'sirida yozilgan "Muhiti A'zam" asarida Oliy Haqiqatni bor narsaning manbai, deb ta'riflaydi .

Mirzo Bedil eng nozik va pokiza tuyg'ularni, insoniyatga muhabbatni ifodalaydi. Shunday qilib, u o'z vatanini, vatanparvarligini ulug'laydi.

"Neki go'zallikka egadir jahon  
Hindiston diyori bariga makon.  
Qoracha jononlar bari marg'ubmas  
Lek Laylo vatani shaksiz Hindiston" .

Umuman olganda, Mirzo Abdulqodir Bedil jamiyat, davlat ularning mohiyatiga alohida e'tibor qaratar ekan ijtimoiy taraqqiyotda iqtisodiy omil ustunligini ta'kidlaydi. Dehqonning mehnati tufayli aholining soni tez sur'atda o'sib boradi, hunarlar, ilm – fan, savdo – sotiq, tijorat yuzaga keladi va rivoj topadi, qo'l xizmatini til orqali, til xizmatini qo'l vositasida amalga oshirib bo'lmasligini bayon etadi. Mirzo Abdulqodir Bedilning ijtimoiy falsafiy ayniqsa jamiyat to'g'risidagi g'oyalari Zebuniso, Anbar Otin, Dilshod otin, Muqimiy, Furqat, Ahmad Donish , S.Ayniy ijodi va dunyoqarashining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan .

Shoir Mirzo Abdulqodir Bedil o'zining oliyjanob fikr va g'oyalarini, oddiy insonlarga bo'lgan mehr-shavqatini va ayni paytda qabohatning jirkanchligini, o'zi esa erkin orzu va xayollar oshig'i ekanligini "Komde va Modan" dostonida mahorat bilan tasvirlab beradi. Asardagi raqqosa Komdening go'zalligini va unga oshiq bo'lib qolgan qo'chiqchi va cholg'uchi yosh Modan sevgi muhabbatini butun sehru jozibasi bilan tarannum etgan. Doston haqiqiy sevgi, inson qadri, iste'dodning mislsiz qudrati haqidagi go'zal asar bo'lib, u har bir avlodni shunday yuksak tuyg'ular va ishqqa sadoqat va go'zallikka tan berish sari ilhomlantirayveradi .

Shuningdek, dostonda do'stlik, muhabbat, vafodorlik, adolat, ilm-ma'rifat masalalari ham aks etgan. Mirzo Abdulqodir Bedilning ijtimoiy masalalarga oid qarashlarida ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik asosiy o'rinni egallaydi.

Shunday qilib, Mirzo Bedil ham o'tmishning ko'plab mutafakkirlari singari o'z mamlakatini ma'rifatli va adolatli hukmdor boshqarib borishini doimo orzu qilgan.

Bugungi kunda angi O'zbekistonda yangi siyosiy tafakkurni shakllantirishda insonparvarlik mazmuniga ega bo'lgan o'tmish merosini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Mirzo Abdulqodir Bedil ijodida Hind falsafasi va fors – tojik diniy falsafiy oqimlarning insonparvarlik an'analari mavjud.

Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasi insonning intilishlariga asoslanadi, u o'z she'riyatida insonning qadr-qimmatini nafaqat uning boyligi bilan, balki bilim va malaka egallashi bilan ham belgilanishini e'tirof etadi.

Ba'zilar kelishar deb ilmu hunar,  
Ba'zilar kelishar istab simu zar.  
Hayol qasri ichra havas narvonin  
Qay poyasidalar, shuncha olishar .

Ustoz Ibrohim Mo'minov ta'kidlab o'tganlaridek, "Mirzo Abdulqodir Bedil ta'kidlashicha, mehnat bilan band bo'lmagan odam marvaridsiz chig'anoqdek befoydadir ipak yoki oddiy

matodan qilingan ust bosh kishining xulq atvori, haqiqiy qiyofasini belgilashda asosiy omil bo'la olmaydi, balki insonni axloqiy qiyofasi mehnatda, qilgan ishlarida bilinadi". Ya'ni:

"Joma hoh atlas ast, hoh palos,  
Shaxs botil nameshavad zi libos.  
Ma'niash ravshanu taqaddusi rang,  
Az siyohii xat nadorad nang" .

Bu shuni anglatadiki, odamlar hech qachon o'zlarining axloqiy xatti-harakatlarini kiyim orqasida yashira olmaydilar.

Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt – saodati, teng huquqliligi, to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushunchadir .

Mirzo Abdulqodir Bedil uchun insonparvarlik insonni haqiqiy taraqqiyotining asosiy mezonidir. Chunki u uchun, inson bu oy ostidagi dunyoda o'z maqsadiga ega bo'lgan, eng mukammal mavjudotdir. Mirzo Abdulqodir Bedil gumanizmi o'zining ijtimoiy ahamiyati bo'yicha oliy axloqiy kategoriya hisoblanadi. Mutaffakir o'z diqqat-e'tiborini asosan inson shaxsiyatining axloqiy mazmuniga qaratgan, uning insonparvarlik konsyepsiyasining markazida inson turadi.

Darhaqiqat, shuni aytish mumkinki har bir davrda yashagan faylasuflar ijodiga, o'sha davr ruhiyati ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shunday ekan, Mirzo Abdulqodir Bedilning insonparvarlik g'oyalariga u yashagan davr ta'sir qilgan. U podshohlar o'rtasidagi urushlar, ayniqsa Akbarshohning vorislari o'rtasida bo'lgan kelishmovchiliklar hamda ruhoniylarning o'z manfaatlarini yo'lida amallardan foydalanishlariga guvoh bo'lgan.

"Ne hosil, ayo nola, bul otash nafasingdan,  
Qon bo'l, seni deb bo'yla kabob o'ldi, bizim dil.  
Bir chashma-ku to'foni hayol ichra bu olam,  
Mirzo Abdulqodir Bedil, na iloj, emdi sarob o'ldi, bizim dil .  
(Olovli nafasingning oqibati nima, ey nola,  
Qon, kabob o'ldi sendan, yuragimiz.  
Bu dunyo bahor va toshqin orzusi.  
Istaksizlik, iloj yo'q, orzu o'ldi, yuragimiz)".

Mirzo Abdulqodir Bedil faylasuf va ilg'or mutafakkir bo'lganligi uchun yuqori toifadagi amaldorlarning boylik orttirishi, buzuqchiligi va axloqsizligi hamda oddiy dehqonlar va hunarmandlarga nisbatan adolatsizligi va ularni xo'rlatishlarini jim turib kuzata olmagan. U bo'layotgan nohaqsizliklarni to'g'ridan-to'g'ri siyosiy harakatlarning ishtirokchisi bo'lmagan, ammo jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni, yuqorida aytib o'tilgan illatlarni o'z asarlarida tanqid qilgan. Ya'ni:

"Dunyoda odamgarchilikni bilmaydigan arbobdan madad kutib, umringni zoye o'tkazma" deb nasihat qiladi. O'z faoliyatida xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni teran sezib, adolat, osoyishtalik, yurt tinchligi bo'lishini orzu qilgan:

"Agar qilcha nizo bo'lsa odamda,  
Yo'qolur osoyish, tartib olamda.

Yuz xumda tiniq sut bo'lsa, barini –  
Achitar nim tomchi sirka bir damda” .

Mirzo Abdulqodir Bedil insonni insoniylik tamoyillariga amal qilishini, shu dunyodagi ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan haqqini himoya qilgan, shaxs erkinligi va adolatli jamiyat tuzilmasini qo'llab-quvvatlagan . Shuni aytib o'tish joizki, u inson taqdirini irfon orqali tushuntirishga o'tgan, insonning maqsadi ilohiyni bilish va bu o'z-o'zini bilish orqali amalga oshadi, deya e'tirof etadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil fikricha, o'z-o'zini bilish, ko'p qirrali xarakterga ega, chunki unda estetik, axloqiy va jismoniy tomonlari mavjud. Mukammalikka erishish uchun inson o'z tanasining mohiyatini anglashi, o'z go'zalligini tushunishi va unda ilohiy nurni ko'rishi kerak .

Ustoz Z.Davronov ta'kidlab o'tganlaridek, “Mirzo Abdulqodir Bedil o'z davrining ilg'or tafakkur egasi sifatida ijtimoiy hayot masalalariga e'tibor qaratdi. Uning asarlari va she'rlarida turmush tarzining xilma-xil sohalari ochib berilgan. Ma'lum qarashlarida insonlarni birdamlikka g'ayrat, shijoatga chorlab:

Himmat kamarini bog'lagan hamon,  
Chumoli yengadi she'rni begumon .

Mirzo Abdulqodir Bedilga ko'ra, oliy axloqiy fazilatlar, insonni erkinlikka etishishida, olamni bilishi va o'z-o'zini takomillashtirishda shakllanadi. Mutafakkirning fikricha, inson axloqiy komillikka muhabbatni izlash va unga bo'lgan haqqini anglash orqali yetadi.

Olima O.Muhammadiyeva o'z tadqiqotlarida e'tirof etib o'tganidek, “Mirzo Abdulqodir Bedil insonning axloqiy qadriyatlarini sinchiklab o'rganar va tahlil qilar ekan, barcha kishilarning hulq-odobi bir darajada emasligi, yaxshi xulq bor joyda yomon, ya'ni salbiy xislatlar ham borligiga e'tibor beradi. Kishilar orasida sahiylar va baxillar, qaramlar va qaramsizlar, to'g'rilar va to'g'risizlar borligini ko'rib, insondan oliyjanob xislatlarni rivoj toptirish yo'llarini izlaydi” .

Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasida yana bir muhim masala muhabbatdir. Faylasuf Bedilning fikricha, muhabbat- bu shodlik va mustaqillik bilan sog'lom turmush tarzidir. Mirzo Abdulqodir Bedil ham boshqa so'fiylar singari chinakam ishqni inson qalbining ibtidoiy olam bilan birligida ko'radi. Biroq, bir-biriga bog'liq jamiyatlarda odamlar aql, adolat va axloq asosida ish ko'rsalar, sevgiga erishiladi. “Mirzo Abdulqodir Bedil axloqli insonni marvarid bilan taqqoslaydi” . Jamiyatda yaxshi odamlarni bema'ni odamlar bilan aralashtirib yubormaslik kerak, shuning uchun axloqiy odamlarning rivojlanishi sevgining muhim shartidir. Faylasuf Muhabbatni hashamatli saroyda ko'rmaydi. U faqat ruhning tinchligida mavjud .

“Yuz shukrki, turli dinu turlicha millat –  
Odamlari uchraganda ko'rsatdim hurmat.  
Soya kabi har tarafga bo'lsam-da ravon,  
Yo'l ozig'im kishilarga bo'ldi muhabbat”.

Mirzo Abdulqodir Bedilning ijodi adolat va bu dunyodagi muhabbatga bo'lgan ishonchning insonparvarlik an'anasi hamda illatlarga va nafslarga tanqidiy yondashuvning misoli.

Mirzo Abdulqodir Bedil adolat va adolatli jamiyatni ko'rish orzusi bilan yashagan. Mirzo

Abdulqodir Bedil adolat kategoriyasini kishilar ahvolidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va axloqiy jihatlari nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Adolat ijtimoiy hayotning hal qiluvchi mezon sifatida qaralib, undan yuz o'g'irganlarga nisbatan nafratni bildiradi.

“Muallim as-Soniy” – “Ikkinchi muallif” unvoniga sazovor bo'lgan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida adolatli, fazilatli jamiyat, davlatni demokratik boshqarish to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan. Mutafakkir “adolatli ideal jamiyatida kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql zakovatiga, fazilatli axloq odobiga, hayotiy tajribasiga yuksak baho beradi. Bu jamiyatda davlat boshliqlarini fuqarolarning o'zlari saylaydilar. Agar saylagan boshliqlar xalq manfaatlariga zid harakat qilsalar, ular o'z amal mansablaridan chetlashtiriladi. Ideal davlat arboblari o'z faoliyatlarida adolat teng huquqlilik, fuqarolar manfaatlarini ko'zlab ish tutadilar” deya e'tirof etadi.

Aynan bu fikrlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatiga ega. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tayotgan xalqimiz salohiyatini yanada baland cho'qqilarga ko'tarish, barcha sohalarda tub islohotlar va ulkan yangilishlarni amalga oshirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish, yurtimizda eng ilg'or demokratik va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etilayotganligini guvohimiz. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlagandek, “Bizning faoliyatimiz eng muhim konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashga qaratilishi shart. Ijtimoiy adolat bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir”.

Darhaqiqat, jahon miqyosida kechayotgan murakkab jarayonlar va yangi O'zbekiston taraqqiyoti natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, kelgusi yillar aholi farovonligini yanada yuksaltirish, inson manfaatlarini huquqlarini tamoyillar asosida ta'minlashga qaratilgan, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqqan yettita ustivor yo'nalishdan: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish; adolat va qonun ustivorligi; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish tamoyillariga asoslangan ustivor yo'nalishlar bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Albatta Yangi O'zbekiston yoshlari dono, bilimdon, odobli, ijodiy va intellektual salohiyatga ega yetuk va mukammal shaxs bo'lib yetishishlari uchun, yangi bilimni, kasbni egallash, uni har tomonlama boyitish uchun doimo izlanish va intilishda bo'lishlari asosiy maqsaddir.

Mirzo Abdulqodir Bedil aytganidek, ilm-hunar egallab, ongli mehnat qilmaguncha “kishi yuziga iqbol eshigi ochilmaydi”.

“Insonning qiymati emas siymu zar,

Insonning qiymati ilm ham hunar”.

Demak, mustaqillik tufayli o'rganish, tahlil etish ajdodlarimiz ma'naviy merosini chuqur o'rganish bizning muqaddas burchimizdir. O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

### References:

1. Mirzo Abdulqodir Bedil Ruboiylar. Shoislom Shomuhamedov tarjimasi. – Toshkent, 1986
2. Sattorova S. B. Unique study of the problem of justice and equality in the doctrine of

human and society of MIRZA ABDUL QADIR BEDIL //Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 1-10.

3. Айни Х.С. Бедиль и его поэма «Ирфон». - Сталинабад 1956
4. Bedil M.A. Kulliyot .- Dushanbe.-1993
5. Нуров Н., Салимй Н. Поэтикаи ғазалиёти Мирзо Абдулқодири Бедил. – Nashriëti Noshir, 2020.
6. Мухаммадиева О. Бедил ва ахлоқий қадриятлар фалсафаси. – Yangi nashr, 2016.
7. Sattorova S. B. LIFE AND WORK OF MIRZO BEDIL //European International Journal of Philological Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 08. – С. 13-16.
8. Салимов М. С., Тагоймуродов Р. Х. БЕДИЛ О НОСТАЛЬГИИ //Вестник Бохтарского государственного университета имени Носира Хусрава. Серия гуманитарных и экономических наук. – 2018. – №. 1-2. – С. 37-40.
9. Sattorova S. B. SOME FACTS ABOUT THE LIFE OF MIRZO BEDIL //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 112-114.